

VATANIM HAQIDA NIMALARNI BILAMAN?

Madina, esingdami, yozda shaharda sayr qilib yuranimizda maydonda ulkan bayroqni ko'rgan edik?



Ha, xuddi gerb va madhiya kabi bayroq ham mamlakatimiz ramzi sanaladi. Sport musobaqalari g'oliblari sharafiga har doim bayroq ko'tariladi va madhiya yangraydi. Agar shaharda biror binoning ustida bayroqni ko'rsang, demak, bu davlat muassasasi bo'ladi.

Men yana kupyuralarda, ya'ni qog'oz pullarda ham gerb tasvirini ko'rganman.



Ko'pgina davlatlar o'z valyutasiga ega. Pul kupyuralarida mashhur insonlar, yodgorliklar, tarixiy binolar va davlat muassasalari tasvirlangan bo'lishi mumkin.

me'moriy yodgorlik – Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi

xaritada Buyuk ipak yo'li karvon yo'llarining yo'nalishlari tasvirlangan



kupyura nominali (qiymati)

seriya va nomer

adras naqshi



Ta'tilda Amir ota-onasi bilan boshqa davlatdagi qarindoshlarinikiga mehmonga bordi. Sayr davomida bolalar Amirdan O'zbekiston haqida gapirib berishini so'rashdi. Amir dovdirab qoldi va nima deyishni bilmadi. "Indamay turishingga qaraganda, u yerda katta ehtimol bilan birorta ham qiziqarli narsa yoki maskan yo'q. Menimcha, vatanning juda zerikarli bo'lsa kerak", – dedi bolalardan biri. Amir xafa bo'lganidan yig'lab yuborgudek bo'ldi.



1. Sizningcha, Amir bu voqeadan qanday xulosa chiqardi?
2. Agar Amirning o'rnida bo'lganingizda, O'zbekiston haqida nimalarni so'zlab bergan bo'lardingiz?



Vatanga bo'lgan muhabbat, o'z xalqining an'analari va madaniyatiga hurmat, o'z mamlakatini asrash va himoya qilishga tayyorlik **vatanparvarlik** deb ataladi.





Har bir xalqning avloddan avlodga o'tib kelayotgan o'z an'analari va ramzlari bor. Ular insonlarga o'z kelib chiqishini doim eslatib turish barobarida madaniyati bilan faxrlanishiga ham yordam beradi. Mana shunday ramzlardan biri – do'ppi.

Do'ppining tarixi

- Bobojon, qarang, qanday chiroyli bosh kiyimlar!
 - Bular do'ppilar, – dedi bobo. – Ularni Sharqda juda qadimdan kiyishadi.
 - Nega ularning hammasi har xil?
 - Chunki do'ppidagi har bir naqsh o'ziga xos. Ilgari ular qo'lda tikilgan va har biri o'ziga xos naqshga ega bo'lgan.
 - Bir xil naqshlilari yo'qmi?
 - Deyarli yo'q, – jilmaydi bobo. – Naqshiga qarab, hatto insonning qayerdan ekanligini ham bilib olsa bo'ladi.
 - Rostdanmi?
 - Ha. Shuning uchun har kim o'zining kelib chiqishini bilishi va Vatanini sevishi muhim. Daraxtning ildizi bo'lganidek, insonning ham tug'ilib o'sgan yeri, an'analari va ajdodlari bo'ladi. Buni unutmaslik kerak!
- Nabira do'ppilarga qarab dedi:
- Unday bo'lsa, keling, ular ichidan ajdodlarimizning urf-odatlarini haqida yorqinroq so'zlab bera oladiganini tanlaylik.
 - Yaxshi fikr, – dedi bobo. U saralab olgan do'ppisini nabirasining boshiga kiydira turib, yana qo'shimcha qildi: – Do'ppiga hurmat bilan munosabatda bo'lgin, uni faxr bilan kiyib yurgin.



TO'RT TOMONI


borliqning to'rt asosiy nuqtasidagi yovuz kuchlardan himoyalaniшни anglatadi.

QORA MATO

Koinot va qorong'ilikni tasvirlaydi.

QALAMPIR NUSXASI

hayot ramzi, oilaviy farovonlik va yomon ko'zlardan asrovchi tumor hisoblanadi.

**OQ IPLAR**

poklik, beg'uborlik, musaffolik va quyosh nurini ramziy ma'noda anglatadi.

16 TA ARKA

hayotning abadiyligini anglatadi, uzoq umr tilagini ifodalaydi.



Daftaringizga do'ppi rasmini chizing va unga naqsh o'ylab toping. U nimani anglatadi?



1. Nima uchun rastadagi do'ppilar har xil edi?
2. Do'ppi naqshidan nimalarni bilib olish mumkin?
3. Nima uchun har kim o'zining kelib chiqishini bilishi muhim?



O'zingiz tug'ilgan joy haqida qisqacha hikoya tayyorlang.

